

Komilova.N. O‘
Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent
FARGONA DAVLAT UNIVERSITETI
Farg‘ona, O‘zbekiston

Komilova.N. O
Doctor of Philosophy (PhD) in Geography, Associate Professor
FERGANA STATE UNIVERSITY
Fergana, Uzbekistan

DEHQONCHILIK MADANIYATINING QADIMIY KELIB CHIQUISHINI GEOGRAFIK ASOSLARI.

GEOGRAPHICAL BASIS OF THE ANCIENT ORIGIN OF FARMING CULTURE.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ajdodlarimiz ibtidoiy jamiyat davrlaridan boshlaboq, tabiiy sharoitga moslashib, tabiat bilan hamohanglikda o‘ziga xos xo‘jalik-madaniy turlarni yaratganlar. Bunday o‘ziga xos erga ishlov berish insonlarning tabiatga bo‘lgan munosabatini, bunyodkorik ishlarini amalga oshirishga undab kelmoqda.

Abstract: In this article, our ancestors, after the era of primitive society, adapted to natural conditions and created unique economic and cultural types in harmony with nature.

Kalit so‘zlar: *dehqonchilik, “suvli er”, “tirama” yoki “obikor”, “obi”, “lalmi”, “bahori” Farg‘ona vodiysida yashagan elatlar tirama erlarni yana ikkiga bo‘ladilar: erta ekiladigan “oq” va kechroq hosil beradigan “ko‘k” ekinlar.*

Keywords: *agriculture, "watery land", "tirama" or "obikor", "obi", "lalmi", "bahori". The people living in the Fergana Valley further divided tirama into two types: "white" crops, which are sown early, and "blue" crops, which yield a late harvest.*

Ibtidoiy davrda odamlar tabiatda tayyor mavjud bo‘lgan mahsulotlarni iste‘mol qilib kelgan. Dehqonchilikning paydo bo‘lishi insoniyat tarixidagi eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, uning tarqalishi bir nechta asosiy markazlar bilan bog‘laniladi. Masalan, Osiyo qit‘asida qadimdan yovvoyi bug‘doy, Markaziy Amerikaning ko‘llarida yovvoyi sholi o‘sgan. Afrikada esa turli ildiz va mevalar oziq-ovqat vazifasini bajargan. Ammo davr o‘tishi bilan aholining ko‘payishi natijasida tabiiy sharoit, qulay iqlim va unumdor tuproqli daryo vodiylari inson

tirikchiligi uchun asosiy manbaa bo'la boshladi. Asta-sekin odamlar o'z mehnati bilan zarur mahsulotlarni sun'iy ravishda, xonakilashtirib etkaza boshladi. SHu ma'noda qishloq xo'jaligiga asos solinib, musson iqlimli va daryolarning sug'orish imkoniyatlari sharqiy sivilizatsiyaning shallanishiga yordam bera boshlaganinini ko'rishimiz mumkin..Oqibatda tabiiy o'simliklar o'rnini sekin astalik bilan ekin maydonlari(dalalar) egallay boshladi..

Qadimgi dehqonchilik va boshqa xo'jalik turlarining paydo bo'lishi geografik jihatdan asosan unumdor tuproqli, suv resurslariga boy (daryolar) muayyan tabiiy sharoitda yoki subtropik va mo'tadil iqlimli hududlarda yuzaga kela boshladi.Olimlarning ta'kidlashicha, dastlabki dehqonchilik er kurrasining tahminan 20-45⁰ parallellari oralig'ida paydo bo'lgan va uzoq davr davomida o'zlashtirilib, takomillashib kelgan. Dehqonchilik madaniyati iborasi asli erga ishlov berish degan ma'noni anglatib, keyinchalik boshqa sohalarga o'tgan va umumiy tarzda madaniyat (ishlov berish) yaratish so'ziga aylangan. Erga ishlov berish va o'simliklarni parvarish qilish madaniyati tufayli inson tabiatning eng ulug' ne'mati sifatida bunyodkorlik ishlarini amalga oshirib kelmoqda. Tabiatda mavjud yuzlab o'simlik turlarini sun'iy ravishda ko'paytirib, qishloq xo'jalik mahsulotiga aylantirdi. Oqibatda qadimiy davrlardan boshlaboq, bug'doy, sholi, makkajo'xori, jo'xori kabi o'simliklar quruqlikning ko'plab qismlariga tarqaldi.

Ajdodlarimiz ibtidoiy jamiyat davrlaridan boshlaboq, tabiiy sharoitga moslashib, o'ziga xos xo'jalik-madaniy tiplarini yaratganlar. Asrimiz boshlarida o'zbek diyorida an'anaviy mazkur sharoitga moslashgan uch xil xo'jalik-madaniy tiplari ma'lum bo'lgan: Vohalarda yashovchi aholining o'troq dehqon xo'jaligi; Dasht va yarim dashtlarda qisman ko'chmanchi aholining chorva xo'jaligi; Vohalarga yaqin va daryo quyi oqimida joylashgan aholining chorva-dehqonchilik xo'jaligi.

Bu holat mahalliy etnoslarning shakllanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Chunki tabiiy sharoitning ta'sir belgilarini etnik madaniyatning barcha sohalarida, ishlab chiqarish sohalaridan, ayniqsa mehnat qurollaridan boshlab maishiy turmush buyumlari va hatto elatlarning nomlarigacha sezish mumkin. Masalan, tabiiy

sharoit va iqlimga qarab odamlarning moddiy va ma'naviy madaniyati, qishloq xo'jalik ekin turlari, aloqa vositalari, hatto psixologik xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Mahalliy tuproq va suv resurslariga, tabiiy o'simliklar, boshqa er usti hamda er osti boyliklariga qarab turmush tarzi va madaniyati xarakteri, milliy his-tuyg'ular ham shakllanadi. Xo'jalik-madaniy tiplarning yo'nalishlari o'z navbatida tevarak-atrofdagi tabiiy muhit bilangina emas, balki mayyan etnoslarning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji darajasi bilan ham belgilanadi.

O'zbekistonda sug'orma dehqonchilik eramizdan oldingi III-II ming yilliklarda keng tarqala boshlagan. O'sha davrlardayoq Zarafshon kabi yirik daryo sohillarida, Xorazm vohasida ekin erlarning o'zlashtirilishi rivojlangan. II-ming yillik oxirlari, I ming yillik boshlarida Farg'ona vodiysi o'zlashtirila boshladi.

Asrlar osha mahalliy dehqonchilikda er unumdorligini tiklash va agrotexnika usullarini takomillashtirish, tuproqni o'g'itlashning har xil usullari paydo bo'ldi. Sug'orish va sho'rni yuvish kabi usullar keng joriy qilindi. Ayniqsa, eramizdan avvalgi I ming yillikda Xorazmda yirik magistral kanallar qurish har xil suv taqsimlash va suv chiqarish inshootlarini barpo etish ishlari takomillashdi. Qadimiy Oqchadaryo havzasida topilgan sug'orish inshootlari, marzalangan dalalarning izlari qadimgi Misr klassik havza dehqonchiligini eslatadi.

Mahalliy dehqonlar madaniy-etnik an'analar asosida dalachilik, polizchilik va bog'dorchilik sohalarida turli usul va yo'llarni ishlab chiqqanlar. Ilk dehqonchilik davrlaridayoq, ular foydali o'simliklarni, ayniqsa, donli va poliz ekinlarini, bog'dorchilikni o'zlashtirganlar.

O'zbekiston hududidagi dehqonchilik sug'orish xususiyatlari va ekin turlari bilan ham farqlangan. Masalan, sug'orma dehqonchilikni mahalliy aholi "suvli er", "tirama" yoki "obikor", "obi" hamda sug'orilmaydigan erlarni "lalmi" yoki "bahori" deb ataganlar. Farg'ona vodiysida yashagan elatlar tirama erlarni yana ikkiga bo'ladilar: erta ekiladigan "oq" va kechroq hosil beradigan "ko'k" ekinlar. Xorazmda ham lalmikor erlar "oq er" deb atalib, ariqlardan ortgan quyi oqimdagi suvli erlarga sholi ekilib, unga "sholikor er" deb nom berilgan. Sug'orma

dehqonchilik asosan qadimiy vohalarda – Xorazm, Buxoro, Samarqand, Toshkent vohalarida, Qashqadaryo va Surxondaryo havzalarida, Farg‘ona vodiysida joylashgan.

Bahori ekinlar Toshkent vohasida, Farg‘ona va Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo va Surxondaryo tog‘ etagi mintaqasida ekilgan. Ekin erlarining ishlatilishiga qarab ikkala xo‘jaliklarda ham dehqonchilikning har xil usullari – qo‘riq, partov yoki bo‘z va dam berilgan shudgor erlar va paykalli erlarga bir xil ekish usullari qo‘llanilgan. Ko‘p joylarda qurilish materiallari etkazish maqsadida dehqonchilik ko‘chat o‘tkazish bilan birga olib borilgan. Maxsus ajratilgan erlarga tol, terak, qayrag‘och kabi daraxt ko‘chatlari ekilib, bir necha yillardan keyin ular qurilishga ishlatilgan.

Sug‘oriladigan erlar yana ekinlarga qarab dala yoki ochiq erlarga, bog‘dorchilik hamda polizchilik erlariga bo‘lingan. 1916 yilda Trukiston o‘lkasining uchta viloyati bo‘yicha (Sirdaryo, Samarqand, Farg‘ona) 2,5 mln. desyatina ekiladigan erlarning 2/3 qismi sug‘orma erlar, qolgani bahori erlar hisoblangan.

Sug‘orma dehqonchilik katta mehnat natijasida amalga oshirilgan. Yirik sug‘orish inshootlarini qurish va ularni muntazam ravishda o‘z vaqtida tozalash, ta‘mirlash ishlari katta mablag‘ va ish kuchini talab qilgan. Bunday ishlar o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan asriy jamoatchilik an‘analari asosida boshqarilgan.

Jahonda qishloq xo‘jaligini yuritish tizimi tezlik bilan o‘zgarib bormoqda. XX asrning 80-yillar o‘rtalariga kelib qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika ta‘minotining ortib borishiga taraqqiyotning bosh omili deb qaralar edi. Bu mezon bo‘yicha rivojlangan Niderlandiya, Buyuk Britaniya, AQSH kabi mamlakatlarda yangi muaommolar kelib chiqa boshladi. Endilikda qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xarajatlarning ortib ketishi va erdan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ekologik muammolardan jamiyat katta zarar ko‘rmoqda.

Erni ishlatishda to‘la foydalanilmayotgan imkoniyatlardan biri mintaqalarning **tabiiy-agrar imkoniyati** bo‘lib, u geografiya fanining o‘rganish

obekti hisoblanadi. TAning majmualiy baholash undan oqilona foydalanishning hududiy tashkil etish uchun asos bo'lib, an'anaviy tabiiy resurslarni (er, suv, iqlim...) baholashda hisobga olinmaydigan ba'zi jihatlarni to'ldiradi.

Bunday baholash, eng avvalo, ma'lum tabiiy yaxlitlikka ega bo'lgan, bir butun «iqtisodiy geografik hududda» o'tkaziladi. Baholanuvchi unsurlar (komponentlar) va baholash shkalasi shu hudud uchun moslab tanlab olinadi va tuziladi. Baholashda hududning bir butunligidan kelib chiqib, modda va energiya almashinuvi jarayonida sodir bo'ladigan, ishlab chiqarishga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan holatlar hisobga olinadi. Xususan, tog' va tekislik landshaftlari tutash bo'lgan Farg'ona vodiysi sharoitida bu omilning ahamiyati yuqoridir.

Tabiatning «bepul» ne'matlaridan (tuproq unumdorligi, issiqlik, namlik, hududning geografik o'rni) oqilona foydalanish uchun ularni to'g'ri hududiy tashkil etish lozim. Bu unsurlarni bir joydan boshqa joyga ko'chirib bo'lmasligi, ular qaerda joylashgan bo'lsa, shu erdagina foydalanish mumkinligi masalaga geografik yondashuv zarurligini bildiradi. Geografik yondashuvning yana bir afzalligi muammoni hal qilishni iqtisodiy, texnologik, texnik, meliorativ, kimyoviy jihatlari uchun strategik yo'nalishni belgilab berishidir. Yuqoridagi yo'nalishlarda ham hududiy yondashuvdagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligi erlarining tabiiy – agrar imkoniyatlarini baholash uslubiyotiga asosan, tabiiy - qishloq xo'jalik okurqlari doirasida o'tkaziladi. Yu.Ahmadaliyev (2014) tomonidan Farg'ona vodiysidagi ma'muriy tumanlarning tabiiy-agrar imkoniyati bo'yicha reytingi va ularning 3 ta guruhi ajratilgan va tabiiy-agrar imkoniyat darajasining hududiy tarqalishidagi ma'lum qonuniyatlarni qayd etilgan.

Eng yuqori tabiiy-agrar imkoniyat ko'rsatkichiga ega bo'lgan hududlar vodiylar daryolari ichki va tashqi konussimon yoyilmalarning yuqori va o'rta qismida joylashgan xo'jalik va tumanlar uchun xosdir. Uchqo'rg'on (63,6), Asaka (59,5), Izboskan (59,3), Shahrixon (59,0), Paxtaobod (57,4), Norin (57,3), Uchko'priq (55,8), Namangan (55,5) tumanlari joylashgan Norin, Shahrixonsoy, Moylisoy, So'x daryolari konussimon yoyilmalarining shu qismidagi qulay relef,

gidrogeologik va iqlim sharoitlari tufayli bu erlarda yuqori bonitet baliga ega tuproqlar shakllangan. Shu bois yuksak dehqonchilik madaniyatiga erishgan vodiy aholisi joyning bu xususiyatidan mohirlik bilan foydalanib kelganligi tufayli, bu hududlarda sug'oriladigan erlar salmog'i ham yuqori (70-80 foiz) bo'lgan.

Konussimon yoyilmalarning etaklari, konus oraliq botiqlari, adir orti va adir oraliq tekisliklarida joylashgan tumanlarga er va agroiqlim ko'rsatkichlarining yuqori, relief, gidrogeologik sharoitning nisbatan pastroq bo'lishi xosdir. Mazkur hududlarda agroiqlim sharoitining ozroq pastlashi, Qo'rg'ontepa (43,9), Chortoq (43,2), Yangiqo'rg'on (41,8), Marhamat (40,6) tumanlari kabi TAI umumiy balining pastlashishiga olib keladi.

Geomorfologik sharoitning obikor dehqonchilik uchun noqulay bo'lishi botiq relief, nishablikning umuman yo'qligi yoki aksincha adir, tog' reliefi, tik nishablik ko'rsatkichlari ham TAI bali pastlashiga olib kelgan. Pop (40,2), Farg'ona (39,2) Chust (37) kabi tumanlarida sug'oriladigan erlar foizi hududga nisbatan oz bo'lishiga joy reliefi sababdir. To'rtinchidan, Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarida joylashgan tumanlarda gidrogeologik ko'rsatkichlarning pastligi ta'sirida umumiy balning ham pastlab ketganligini ko'rish mumkin. Biroq, dehqonchilik madaniyati, agrotexnika qoidalariga muntazam amal qilish o'zlashtirish vaqtining uzoqligi natijasida cho'l landshaftlarida joylashgan Uchko'prik (55,8), Toshloq (52,7), Bo'z (50,6) tumanlarida yuqori TAI ballarini ko'rish mumkin.

Tuproqlarining bonitet bali oxirgi yillarda sezilarli darajada pastladi, bu holat Rishton, Chust, Oltiariq tumanlarida ko'zga tashlanadi. Binobarin, tuproq sifati o'rta va past ko'rsatkichga ega bo'lgan (9-1,5) tumanlarda amalga oshiriladigan agrotexnik tadbirlarda tuproq sifatini oshirishga alohida e'tibor berilishi lozim.

Agroiqlim ko'rsatkichlari vodiyning tog'li va nisbatan sharqda joylashgan tumanlarida (So'x, Chortoq, Yangiqo'rg'on, Xo'jaobod) pastroq, Markaziy Farg'ona cho'l landshaftida joylashgan tumanlarda yuqori ekanligi xosdir. Qishloq xo'jaligi er turlaridan mevali daraxtzorlar va ekin maydonlari tarkibini

belgilashdagi tashkiliy ishlarda iqlimning bu xususiyatlari yanada ko'proq e'tiborga olinishi kerak.

Adabiyotlar.

1. **Yu.I Ahmadaliev, N.O' Komilova.** Etnoekologik madaniyatning hududiy jihatlari. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=46671614>

2. **Komilova Nargizahon O'rinovna.** Geographical roots and basic concepts of ethnoecology. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11 (4), 1748-1750.

3. **Nargiza O'rinovna Komilova.** Territorial features of the organization of settlements. 3/6. 809-813. 2022. <https://cyberleninka.ru/article/n/territorial-features-of-the-organization-of-settlements>

4. **N. O'.Komilova.** Ethnogeographic aspects of social environmental problems. 3/6. 12-18. 2022. <https://cyberleninka.ru/article/n/ethnogeographic-aspects-of-social-environmental-problems>

5. **Komilova Nargiza O'rinovna.** Gradual study of geographic features of ethno-ecological culture. European science review, 82-84. <https://cyberleninka.ru/article/n/gradual-study-of-geographic-features-of-ethno-ecological-culture>